



MINTAQALARDA BOG‘DORCHILIK KLASTERLARNI JORIY QILISHDA XORIJ TAJIRIBASINI QO‘LLASH

Ergashov Ulug‘bek Zoxidjonovich,

Iqtisodiyot va pedagogika universiteti Samarqand kampusi,
“Iqtisodiyot va muhandislik fanlari” kafedrası (PhD) v.b dotsenti.

DOI: <https://doi.org/10.54613/ku.v18iB.1684>

MAQOLA HAQIDA/O STAT’YE

Qabul qilindi: 18-may 2026-yil

Tasdiqlandi: 21-may 2026-yil

Jurnal soni: 18-B

Maqola raqami: 25

KALIT SO‘ZLAR/КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА

klaster, eksport, mahsulot, oziq-ovqat, meva va rezavor, samaradorlik, barqaror agrosanoat, texnologiyalar, modellari, innovatsiyalar

ANNOTATSIYA/АННОТАЦИЯ

Mazkur maqolada bog‘dorchilik klasterlarini rivojlantirish davlatlarning agrar iqtisodiyotida strategik yo‘nalishlardan biri ekanligi haqida so‘z yuritiladi. Klaster yondashuvining ishlab chiqarish, qayta ishlash, saqlash, logistika va eksport jarayonlarini yagona tizim sifatida integratsiyalashdagi o‘rni yoritiladi. Shuningdek, rivojlangan davlatlarda qo‘llanilayotgan davlat, xususiy sektor va davlat-xususiy sheriklikka asoslangan boshqaruv modellari ko‘rib chiqiladi. Tekislik va tog‘li hududlarning agroiqlim hamda infratuzilma xususiyatlari klasterlar samaradorligiga ta‘siri nuqtayi nazaridan baholanadi. Zamonaviy innovatsion texnologiyalar, raqamli monitoring tizimlari va ilmiy-tadqiqot muassasalari bilan hamkorlikning bog‘dorchilik klasterlari rivojidadagi ahamiyati ochib beriladi. Bog‘dorchilik klasterlarini rivojlantirishda ilg‘or xorij tajribasini o‘rganish va uni milliy sharoitga moslashtirish iqtisodiy samaradorlikni oshirish, eksport salohiyatini kengaytirish hamda qishloq xo‘jaligida barqaror rivojlanishni ta‘minlashga xizmat qilishi maqolada keng yoritiladi. Tadqiqot natijalari xorijiy tajribani milliy sharoitga moslashtirish iqtisodiy samaradorlikni oshirish, eksport salohiyatini kengaytirish va qishloq xo‘jaligida barqaror rivojlanishni ta‘minlashga xizmat qilishini ko‘rsatadi.

ABOUT THE PAPER

Accepted: 18 may 2026

Approved: 21 may 2026

Volume: 18-B

Paper number: 25

KEYWORDS

cluster, export, product, food, fruits and berries, efficiency, sustainable agro-industry, technologies, models, innovations

ANNOTATION

This article discusses the development of horticultural clusters as one of the strategic directions in the agrarian economies of different countries. The role of the cluster approach in integrating production, processing, storage, logistics, and export activities into a unified system is highlighted. In addition, management models applied in developed countries, including state-supported, private sector-led, and public-private partnership-based approaches, are examined. The influence of agro-climatic and infrastructural characteristics of both plains and mountainous regions on cluster efficiency is also evaluated. The study reveals the importance of modern innovative technologies, digital monitoring systems, and cooperation with research institutions in the development of horticultural clusters. Particular attention is paid to the adaptation of advanced foreign experience to national conditions as a means of increasing economic efficiency, expanding export potential, and ensuring sustainable agricultural development. The research findings demonstrate that the effective adaptation of international best practices can significantly contribute to improving productivity, strengthening competitiveness, and promoting sustainable growth in the agricultural sector.

Kirish. Jahonda meva-sabzavotchilik tarmog‘ining aholi oziq-ovqat ta‘minoti va inson salomatligidagi ahamiyati tobora oshirib borishi sharoitida ularni yetishtirish, saralash, qayta ishlash va yetkazib berish jarayonlari samaradorligini oshirish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. “Jahonda 2022-yilda 933,07 mln. tonna meva yetishtirilib, bozorda ularning qiymati 626,85 mlrd. AQSh dollarini tashkil etgan holda 2028-yilga kelib bu ko‘rsatkich 770,0 mlrd. AQSh dollariga yetishi taxmin qilingan” [1, Statista Research Department. (2023). Global fruit market size from 2022 to 2028 (in billion U.S. dollars)]. Bugungi kunda jahon miqosida aholi oziq-ovqat ta‘minotini to‘laonli amalga oshirishda bog‘dorchilikka ixtisoslashgan klasterlar faoliyatini samarali tashkil qilish dolzarb muammolardan biri sifatida qaralmoqda.

Jahonda oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqishga oid amalga oshirilayotgan tadqiqotlar tarkibida meva-sabzavotchilik mahsulotlarining hosildorligi va ularni qayta ishlash samaradorligini oshirish bo‘yicha tadqiqotlar ustuvor ahamiyat kasb etmoqda. Bu borada ekologik talablarga rioya qilgan mahsulotlar hosildorligini oshirish va diversifikatsiyalash, bog‘dorchilik klasterlari sharoitida texnologik innovatsiyalar va zamonaviy qishloq xo‘jaligi yutuqlarini ishlab chiqarishga joriy qilishning samarali mexanizmlarini asoslash, ilg‘or sug‘orish texnologiyalari va suv tejash tizimlari qo‘llashning ilmiy asoslarini takomillashtirish kabi mavzular yo‘nalishdagi tadqiqotlar muhim ahamiyat kasb etmoqda.


Yangi O‘zbekistonda meva-sabzavotchilik tarmog‘ini tubdan rivojlantirish, sifatli va raqobatbardosh bog‘dorchilik mahsulotlarini yetishtirish, tarmoqning eksport salohiyatini keskin darajada oshirish, bog‘lar va tokzorlar hosildorligini ko‘tarish hamda mahsulotlarni saralash, qadoqlash, qayta ishlash bo‘yicha agrologistika tizimini jahon talablari asosida rivojlantirish kabi yo‘nalishlarda keng qamrovli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Shu munosabat bilan klasterlarni tashkil etish, ular bilan fermerlar o‘rtasidagi munosabatlar bo‘yicha yangi tizim joriy qilinishi belgilandi” [2, Statista Research Department. (2023). Global fruit market size from 2022 to 2028 (in billion U.S. dollars)] kabi

vazifalar belgilangan. Bu borada bog‘dorchilikka ixtisoslashgan klasterlar, ularning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish va rivojlantirish yo‘nalishidagi tadqiqotlarni yanada chuqurlashtirish maqsadga muvofiq.

Adabiyotlar sharhi. Xorijiy iqtisodiy adabiyotlarda klasterlar turli hududiy va institutsional model asosida tizimlashtirilgan bo‘lib, ular orasida Yevropa, Shimoliy Amerika, Osiyo va Yaponiya modellari alohida ajralib turadi. Yevropa va Shimoliy Amerika klasterlashuv modellari, asosan, ichki raqobatni iqtisodiy rivojlanish uchun asosiy turki sifatida ko‘radi. Bunda kompaniyalar o‘rtasidagi raqobat samaradorlikni oshiruvchi vosita sifatida talqin qilinadi. Klasterning konseptual asoslari ilk bor Alfred Marshallning 1890-yilda nashr etilgan “Principles of Economics” (Iqtisodiyot prinsiplari) asarida shakllangan bo‘lib, u sanoat tarmoqlarining muayyan geografik hududda ixtisoslashuvi orqali hosil bo‘ladigan iqtisodiy aglomeratsiya afzalliklarini ta‘riflagan. Biroq, “klaster” atamasi ilmiy muomalaga ilk bor amerikalik iqtisodchi Maykl Porter tomonidan kiritilgan. Uning ta‘rificha, klaster - bu ma‘lum bir iqtisodiy yo‘nalishda faoliyat yuritayotgan kompaniyalar, institutlar, ta‘lim va ilmiy markazlarning geografik jihatdan yaqin, o‘zaro bog‘liq va hamkorlikda ishlaydigan majmuasidir. M.Porter o‘zining tadqiqotlarida Italiyadagi poyabzal ishlab chiqarish sanoatini klasterlashuvning tipik modeli sifatida tahlil qilib, bu tuzilmani o‘rta asrlardagi hunarmandlar gildiyalari bilan qiyoslaydi. Uning fikricha, klasterlar o‘zaro hamkorlik, madaniy identiklik va raqobatni uyg‘unlashtirgan holda, muayyan “submadaniyat” asosida shakllanadi. Tarmoq tuzilmalarining xilma-xilligini xorijiy olimlar, xususan, P.Drucker, K.Imai, H.Itami, J.Johanson, M.Castells, R.Miles, B.Z.Milner, R.Paturel, D.Rockart, Ch.Snow, G.Torelli, H.Hakansson va D.Shortlar keng tahlil qilganlar. Ularning qarashlariga ko‘ra, zamonaviy bozor sharoitida tarmoq ishtirokchilari nafaqat mahsulot ayirboshlash orqali, balki qo‘shma loyihalarda hamkorlik qilish, o‘zaro sarmoya kiritish yoki axborot almashinuvi orqali o‘zaro bog‘lanadi


Tadqiqot metodologiyasi Kuzatuvlarimiz asosida bog'dorchilikda klasterlarni joriy qilishda xorij tajribasini qo'llash imkoniyatlari bo'yicha ilmiy xulosa va takliflar ishlab chiqildi. Maqolani tayyorlash jarayonida kuzatish va tanlab olish, so'rovnomma, ilmiy-nazariy hamda empirik kuzatuv usullaridan foydalanildi.

Natijalar. Jahon statistika ma'lumotlariga ko'ra, 1990-yilda jahonda 401,6 mln tonna meva yetishtirilgan bo'lsa, 2024-yilga kelib meva yetishtirish miqdori qariyb 2,3 marta oshgani holda 941,3 mln tonna yetganini ko'rish mumkin. Jahonda klasterlar ijobiy samarasi sabab, yildan-yilga meva yetishtirish miqdori ko'payib bormoqda (1-rasm).



1-rasm. Jahonda meva yetishtirish holati [3, Statista ma'lumotlari asosida muallif ishlanmasi. www.statista.com]

Jahonda eng ko'p meva shubhasiz Xitoyda yetishtiriladi (2-rasm).




2-rasm. Dunyo mamlakatlarida meva yetishtirish holati (mln. tonna, 2024-y) [4, Statista ma'lumotlari asosida muallif ishlanmasi. www.statista.com]

2-rasm ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, 2024-yilda meva yetishtirishda yetakchi bo'lgan Xitoy - 253,9 mln tonna, Hindiston - 107,9 mln tonna, Braziliya - 39,8 mln tonna meva yetishtirishgan. O'zbekiston ko'proq meva import qiluvchi Turkiya - 25 mln tonna, Eron - 16 mln tonna meva yetishtirib, ular jahonda mos ravishda 4- va 11-o'rinlarni egallashadi. O'zbekiston Respublikasida yetishtirilgan mevalar - 5,9 mln tonna bo'lsa, qo'shnilarimiz: Afg'oniston - 3,6 mln tonna, Qozog'iston - 3,2 mln tonna, Tojikiston - 1,4 mln tonna, Turkmaniston - 760 ming tonna, Qirg'iziston - 410 ming tonna meva yetishtirishgan.

Dunyoda qaysi meva ko'p yetishtiriladi? degan savolga ko'pchilik olma deb javob beradi. Ammo bu noto'g'ri ekan (2-rasm).

Ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, 2024-yil ma'lumotlariga ko'ra, dunyoda eng ko'p yetishtirilgan meva - banan hisoblanadi. Banan dunyo bo'yicha - 135,1 mln tonna yetishtirilgan. Dunyo bo'ylab olma mevalari - 95,8 mln tonna, apelsin - 76,4 mln tonna, uzum - 74,9 mln tonna va hokazo miqdorda yetishtirilgan.



2-rasm. Dunyo meva turlarining yetishtirish holati (mln. tonna, 2024-y) [5, Statista ma'lumotlari asosida muallif ishlanmasi. www.statista.com]

Yurtimizda yetishtirish imkonini mavjud mevalardan dunyo bo'ylab nok - 26,4 mln tonna, shaftoli - 26,4 mln tonna, limon - 21,5 mln tonna, olxo'ri - 12,4 mln tonna, xurmo - 9,8 mln tonna, o'rik - 3,9 mln tonna, gilos - 2,8 mln tonna, olcha - 1,6 mln tonna yetishtirilgan.

Tadqiqotlarimizda Yevropadagi bir qator muvaffaqiyatli bog'dorchilik klasterlarini o'rganib chiqdik. Bunda eng muvaffaqiyatli bog'dorchilik klasterlari sifatida quyidagilarni misol qilish mumkin:

- Niderlandiyada bog'dorchilik klasterlari yaxshi rivojlangan bo'lib, ular bir nechta ilmiy-tadqiqot institutlari, universitetlar va yuqori texnologiyali fermerlar bilan hamkorlik qiladi.


- Ispaniyada Almeriya mintaqasidagi bog'dorchilik klasterlari, issiqxona texnologiyalari va ilg'or sug'orish tizimlari bilan mashhur. Bu mintaqada ishlab chiqarilgan mahsulotlar ko'pincha Yevropa Ittifoqi bozorlariga eksport qilinadi.

Muhokama. Yevropada ilmiy-tadqiqot institutlari va universitetlar bog'dorchilik klasterlari bilan faol hamkorlik qiladi. Bunda hamkorlik turli yo'nalishlarda amalga oshiriladi.

Yevropa Ittifoqidagi bog'dorchilik klasterlari innovatsiyalar va yangi texnologiyalar yo'nalishi yangi qishloq xo'jaligi texnologiyalarini ishlab chiqish va joriy etishni tezda tatbiq etadi. Shuningdek, oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashni inobatga olgan holda, ilmiy-tadqiqot grantlari va loyihalari ilmiy-tadqiqot ishlari hukumat tomonidan moliyalashtiriladi.

Yevropa bog'dorchilik klasterlari eng so'nggi tezkor texnologiyalar, innovatsiyalar va ilg'or menejment usullari yordamida raqobatbardoshlikni oshirishda muhim rol o'ynaydi. Ularning muvaffaqiyati davlat siyosati, ilmiy-tadqiqot ishlari va barqaror rivojlanish strategiyalariga bog'liq.

Yevropa Ittifoqi (EI27)ga a'zo davlatlari tomonidan Yevropa klaster hamkorlik platformasi (European Cluster Collaboration Platform – ECCP) ma'lumotlariga ko'ra, jami Yevropadagi 1091 ta klasterlardan 572 tasi eng yaxshi beshta davlatlar: Ispaniya, Germaniya, Fransiya, Italiya va Polshada barcha klaster tashkilotlarining 52 foizi joylashgan. Ushbu mamlakatlarning iqtisodiy ahamiyati bilan solishtirganda (YEI yalpi ichki mahsulotining 69,6 foizini beradi) bu ulushni o'rinli deb hisoblash mumkin.



3-rasm. Yevropa klaster hamkorlik platformasi (ECCP)ga a'zo klasterlar a'zolari soni tahlili [6, ECCP: Summary report on cluster policies and programmes across Europe and priority third countries. 2022]

Agarda ECCPga a'zo klasterlarning a'zolari soni o'rganilganida (2.15-rasm) EI27dagi klasterlarning taxminan 62 foizi 100 tadan kam a'zoga ega. EI27dagi klasterlarning 22 foizi 101 dan 200 gacha a'zoga ega. Faqat 5% atrofida 400 dan ortiq a'zo bor. EI27da klasterlari o'rtacha 170 ga yaqin a'zoga ega. Butun ECCPga 164700 xo'jalik a'zo bo'lib kirgan.

Yevropa Ittifoqidagi klasterlardagi xarakterli jihat, klasterlarning ilmiy-tadqiqot hamkorlariga bog'langanligidir. O'zbekistonda shu jihatni tatbiq etish muhim hisoblanadi. Klasterlarga tegishli hududdagi yirik qishloq xo'jalik universitetlarini hamkor qilinishi muhim.

Tadqiqotlar davomida Yevropa Ittifoqidagi rivojlangan asosiy davlatlardagi bog'dorchilik klasterlari va ularning samaradorlik ko'rsatkichlari o'rganildi (1-jadvalga qarang).

1-jadval jadvalida keltirilgan ma'lumotlarga ko'ra, Niderlandiyada bog'dorchilik sohasida yetakchi klaster Aalsmeer Gul bozori hisoblanib, asosiy mahsulot gul yetishtiradi. Klasterning ilmiy-tadqiqot hamkori Wageningen universiteti hisoblanadi. Klaster tashkil etilishida davlat subsidiyalari orqali ko'mak bergan. Ispaniyadagi Almeriya bog'dorchilik klasteri asosan sabzavotlar yetishtirishga ixtisoslashgan. Klasterning ilmiy-tadqiqot hamkori Almeriya universiteti hisoblanadi. Italiyaning Emiglia-Romagna qishloq xo'jaligi klasteri va Fransiyaning Provans Bog'dorchilik Klasterlari mos ravishda Bologna Universiteti va Montpellier Universitetlari bilan hamkorlik qilishib, ular meva-uzum mahsulotlari yetishtirishga ixtisoslashgan.

1-jadval

Yevropa Ittifoqi mamlakatlaridagi muvaffaqiyatli bog'dorchilik klasterlarining xususiyatlari [7, O'sha manba]

№	Mamlakat	Klaster nomi	Asosiy mahsulotlar	Ilmiy-tadqiqot hamkorlari	Tashkiliy yordam
1.	Niderlandiya	Aalsmeer Gul Bozori	Gullar	Wageningen Universiteti	Davlat subsidiyalari
2.	Ispaniya	Almeriya Bog'dorchilik Klasteri	Sabzavot	Almeriya Universiteti	Davlat va xususiy sektor investitsiyalari
3.	Italiya	Emiglia-Romagna qishloq xo'jaligi klasteri	Meva, uzum	Bologna Universiteti	Moliya va marketing yordam
4.	Fransiya	Provans Bog'dorchilik Klasteri	Meva, uzum	Montpellier Universiteti	Barqaror rivojlanish strategiyalari

2-jadval

Yevropa Ittifoqi mamlakatlaridagi yirik bog'dorchilik klasterlarining iqtisodiy ko'rsatkichlari [8, O'sha manba]

№	Mamlakat	Bog'dorchilik mahsulotlari	Yirik klasterlar soni	Yillik ishlab chiqarish (mln tonna)	Eksport qiymati (mlrd €)
1.	Niderlandiya	Gullar, sabzavot	5	2,5	12,0
2.	Ispaniya	Sabzavot, meva	3	4,0	10,5
3.	Italiya	Meva, uzum	4	3,8	9,2
4.	Fransiya	Meva, uzum	3	3,2	8,7

2-jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, Yevropa Ittifoqi mamlakatlarida ilmiy-tadqiqotlarning yo'lga qo'yilganligi sabab, Niderlandiyada gullar va sabzavotlar yetishtiruvchi asosiy 5 ta yirik klaster yil davomida 2,5 mln tonna mahsulot yetishtirib, 12,0 mlrd yevro qiymatida eksportni ham amalga oshiradi. Ispaniyada meva-sabzavot yetishtiruvchi 3 ta yirik klaster 4,0 mln tonna mahsulot ishlab chiqarib, eksport qiymati 10,5 mlrd yevroni tashkil etgan. Italiyada va Fransiyadagi meva-sabzavot yetishtiruvchi klasterlar mos ravishda 9,2 va 8,7 mlrd yevrolik eksport qiymatiga egaligi Yevropa Ittifoqida ilmiy tadqiqotlar va qishloq xo'jaligining hamkorligi iqtisodiyotga qanchalik naf keltirayotganligini ko'rsatmoqda.

Shu o'rinda mamlakatimiz Prezidenti bejizga ilm-fanga, ta'lim-tarbiyaga alohida e'tibor qaratayotganligi bejiz emas deb hisoblaymiz.

"Mamlakatni qudratli, millatni buyuk qiladigan kuch bu - ilm-fan, ta'lim va tarbiyadir" - Shavkat Mirziyoyev. O'zbekiston Prezidentining asosiy maqsadi o'zbek farzandlarining bilimli, baxtli va boy bo'lishiga erishish ekan, davlat rahbarining tinimsiz mehnati ana shu maqsad yo'lida kechayotgani ta'kidlandi. "Ta'lim sohasida farzandlarimiz zamonaviy bilim va ko'nikmalarni puxta egallashi uchun eng qulay sharoitlar yaratishni izchil davom ettiramiz", - dedi prezident [9, Mirziyoyev Sh.M. Mamlakatni qudratli, millatni buyuk qiladigan kuch bu — ilm-fan, ta'lim va tarbiyadir. 9.12.2023 www.daryo.uz].

Ilm-fanning hissasini Yevropa Ittifoqidagi bog'dorchilik klasterlarining iqtisodiyotga ta'siri misolida ham ko'rish mumkin.

3-jadval

Yevropa Ittifoqi mamlakatlaridagi bog'dorchilik klasterlarining milliy iqtisodiyotga ta'siri ko'rsatkichlari [10, ECCP: Summary report on cluster policies and programmes across Europe and priority third countries. 2022]

№	Mamlakat	Yaratilgan ish o'rinlari soni (ming kishi)	YaMMga qo'shilgan qiymat (mlrd €)
1.	Niderlandiya	120,0	15,0
2.	Ispaniya	100,0	12,0
3.	Italiya	90,0	11,0
4.	Fransiya	85,0	10,0

Yevropa Ittifoqi mamlakatlaridagi bog'dorchilik klasterlarining milliy iqtisodiyotga ta'siri ko'rsatkichlarini ko'rsatib turibdiki, Niderlandiya, Ispaniya, Italiya, Fransiya mamlakatlarida klasterlar 85,0-120,0 ming kishigacha qo'shimcha ish o'rinlari yaratish bilan birgalikda YaMMga ham qo'shimcha 10,0-15,0 mlrd yevrolik qiymat qo'shmoqdalar. Klasterlar nafaqat mahsulotni sotish imkoniyatlarini yaxshilab beradi, bundan tashqari iqtisodiyot uchun qo'shimcha ish o'rinlari ham yaratib, ularning daromad manbai ham bo'lib xizmat qiladi. Shu sababdan ham, Yevropa Ittifoqida

klasterlar rivojiga alohida e'tibor qaratilib kelinmoqda. Istalgan turdagi korxonalarda tashkil etilish bosqichi bor ekan, ular bir kun kelib daromadsizlikka uchrashi orqali, inqirozga yuz tutib bozordan chiqib ketishi holati ham mavjud, shu bois korxonanaing hayotiy davrini uzaytirishning muhim jihati ilmiy tadqiqotlarga e'tibor qaratish hisoblanadi. Ilmiy tadqiqotlarda innovatsiyalarga, innovatsion texnologiyalarni joriy etishga e'tibor Yevropa Ittifoqida katta (3-jadval).

4-jadval

Yevropa Ittifoqi mamlakatlaridagi bog'dorchilik klasterlarida ilmiy-tadqiqot loyihalari, yo'nalishlari va qiymati [11, ECCP: Summary report on cluster policies and programmes across Europe and priority third countries. 2022]

№	Mamlakat	Ilmiy-tadqiqot loyihalari soni	Innovatsion texnologiyalar	Ilmiy-tadqiqot byudjeti (mln €)
1.	Niderlandiya	50	Avtomatizatsiya, sensor texnologiyalari	200
2.	Ispaniya	40	Issiqxona texnologiyalari, suv tejash tizimlari	180
3.	Italiya	35	Organik qishloq xo'jaligi, zamonaviy sug'orish tizimlari	150
4.	Fransiya	30	Biomuhit monitoringi, pestitsidlarni kamaytirish	140

Bunda asosiy e'tibor bog'larda avtomatizatsiya, sensor texnologiyalaridan foydalanishni joriy etishga qaratiladi. Ispaniyada esa yiliga 40 tacha loyiha uchun 180 mln yevro ajratilib, asosiy e'tibor Issiqxona texnologiyalari, suv tejash tizimlariga qaratiladi. Bu Ispaniyaning o'ta issiq iqlimi sabab e'tibor qaratilishiga olib keladi. Yevropaning yana bir issiq va

nam iqlimli mamlakati Italiya esa e'tiborni organik qishloq xo'jaligi, zamonaviy sug'orish tizimlariga qaratib, buning uchun mamlakatda 150 mln yevro ajratiladi. Fransiya esa Biomuhit monitoringi, pestitsidlarni kamaytirish haqida bosh qotirib, yillik 140 mln yevro ajratadi.

5-jadval

Shimoliy Amerika mamlakatlaridagi muvaffaqiyatli bog'dorchilik klasterlarining xususiyatlari [12, USDA Agricultural Research Service. www.usda.gov]

№	Mamlakat	Klaster nomi	Asosiy mahsulotlar	Ilmiy-tadqiqot hamkorlari	Tashkiliy yordam
1.	AQSh	Kaliforniya bog'dorchilik klasteri	Meva, sabzavot	Kaliforniya universiteti	Davlat subsidiyalari
2.	Kanada	Britaniya kolumbiyasi bog'dorchilik klasteri	Meva, gullar	Britaniya kolumbiyasi universiteti	Davlat va xususiy sektor investitsiyalari
3.	Meksika	Sinaloa bog'dorchilik klasteri	Sabzavot, meva	Meksika qishloq xo'jaligi universiteti	Davlat va xususiy sektor investitsiyalari

5-jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, AQShda muvaffaqiyatli klaster sifatida Kaliforniya bog'dorchilik klasteri misol keltirilib, u meva-sabzavot yetishtirishga ixtisoslashgan, ilmiy-tadqiqot hamkori - Kaliforniya universiteti hisoblanadi. Kanadada esa Britaniya kolumbiyasi bog'dorchilik klasteri misol qilinib, u mevalar va gullar yetishtirishga mo'ljallanib, Britaniya kolumbiyasi universiteti ilmiy-tadqiqot hamkori hisoblanadi. Meksikada Sinaloa bog'dorchilik klasteri misol tariqasida olinib, u meva-

sabzavot yetishtiradi, ilmiy-tadqiqot hamkori Meksika qishloq xo'jaligi universiteti hisoblanadi.

AQShda yirik klasterlar soni 6 ta bo'lib, yillik ishlab chiqarish miqdori 10,5 mln tonnani tashkil etadi. AQSh klasterlari 20,0 mlrd AQSh dollari miqdorida bog'dorchilik mahsulotlari eksport qilishadi, ularda 250,0 ming ish o'rni yaratish imkoniyati yaratilib, mamlakat YaMMda 25,0 mlrd AQSh dollari miqdorida qo'shilgan qiymat qo'shadi.

6-jadval

Shimoliy Amerika mamlakatlaridagi yirik bog'dorchilik klasterlarining iqtisodiy ko'rsatkichlari [12, O'sha manba]

№	Mamlakat	Yirik klasterlar soni	Yillik ishlab chiqarish (mln tonna)	Eksport qiymati (mlrd \$)	Yaratilgan ish o'rinlari (ming)	YaMMga qo'shilgan qiymat (mlrd \$)
1.	AQSh	6	10,5	20,0	250	25,0
2.	Kanada	4	3,2	4,5	50	5,0
3.	Meksika	5	7,5	10,5	150	15,0

Klasterlar sabab Kanadada – 50 ming, Meksikada – 150 ming qo'shimcha ish o'rni yaratilgan bo'lsa, YaMMga qo'shilgan qiymat

Kanadada – 5,0 mlrd AQSh dollarini, Meksikada – 15,0 AQSh dollarini tashkil etadi.

7-jadval

Shimoliy Amerika mamlakatlaridagi bog'dorchilik klasterlarida ilmiy-tadqiqot loyihalari, yo'nalishlari va qiymati [12, USDA Agricultural Research Service. www.usda.gov]

№	Mamlakat	Ilmiy-tadqiqot loyihalari soni	Innovatsion texnologiyalar	Ilmiy-tadqiqot byudjeti (mln \$)	Davlat subsidiyalari (mln \$)	Ekologik toza texnologiyalar
1.	AQSh	100	Genetik modifikatsiya, suv tejash tizimlari	500	1,000	Biomassa energiyasi, suv tejash
2.	Kanada	40	Issiqxona texnologiyalari, organik texnologiyalar	200	500	Quyosh energiyasi, ekologik fermerlik
3.	Meksika	60	Pestitsidlarni kamaytirish, suv tejash tizimlari	300	700	Organik qishloq xo'jaligi

7-jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, AQSh bog'dorchilik klasterlarida asosiy davlatning ilmiy-tadqiqotga oid siyosati suv resurslarini tejashga, biomassadan olinadigan energiya resurslariga qaratilib, bu borada yiliga 100 ta loyihaga byudjetdan 500 mln AQSh dollari, davlat subsidiyalari hisobiga 1,0 mlrd AQSh dollari ajratilgan. Kanada esa nisbatan sovuq o'lka bo'lgani bois, issiqxona texnologiyalari, quyosh energiyasidan samarali foydalanish organik texnologiyalar orqali ekologik fermerlikka e'tibor qaratadi. Meksikaning bu boradagi siyosati pestitsidlarni kamaytirish orqali organik qishloq xo'jaligini ta'minlash va suv resurslarini tejash tizimlarini ta'minlashga loyihalar uchun 300 mln AQSh dollari va Davlat subsidiyalari hisobiga 700 mln AQSh dollari sarflanadi.

Jahon mamlakatlari bog'dorchilik klasterlari borasidagi tajribalaridan O'zbekiston misolida ham foydalanish mumkin. Klasterlardagi ishlab chiqarish jarayoniga innovatsiyaviy loyihalarni jalb qilish, agrar sohadagi universitetlar bilan hamkorlikni yo'lga qo'yish va bu borada davlat ko'magini yo'lga qo'yish muhim hisoblanadi.

Xulosa va takliflar

Tadqiqotlarimiz davomida Shimoliy Amerika bog'dorchilik klasterlari holati ham o'rganildi. Shimoliy Amerika bog'dorchilik klasteri modeli quyidagi asosiy xususiyatlarga ega:

1. Asosan yuqori hosildorlik va diversifikatsiyaga amal qilinadi. Shimoliy Amerikada bog'dorchilik klasterlarida hosildorlik yuqori. Bu darajaga texnologik innovatsiyalar va zamonaviy qishloq xo'jaligi amaliyotlarini tatbiq etish yordamida erishiladi. Bog'dorchilikda mahsulotlarning xilma-xil turlari yetishtiriladi, jumladan mevalar, sabzavotlar, gullar va boshqa bog'dorchilik mahsulotlari.

2. Texnologik innovatsiyalarni qo'llanilishiga amal qilinadi. Bunda yangi meva navlarini ishlab chiqish va hosildorlikni oshirish uchun genetik

modifikatsiya texnologiyalaridan qo'llaniladi. Amerika Qo'shma Shtatlari va Meksikaga xos holat suv resurslaridan samarali foydalanish uchun ilg'or sug'orish texnologiyalari va suv tejash tizimlaridan qo'llaniladi. Kanada va Qo'shma Shtatlarda samarali issiqxona tizimlari yordamida yil davomida mahsulot yetishtirish imkoniyati yaratiladi.

3. Shimoliy Amerikada ham ilmiy-tadqiqot borasida hamkorlik va innovatsiyaviy texnologiyalardan yuqori darajada foydalaniladi. Bog'dorchilik klasterlari universitetlar va ilmiy-tadqiqot institutlari bilan yaqindan hamkorlik qilishadi, bu esa yangi texnologiyalar va navlarni joriy etishga imkon beradi. Innovatsiyaviy texnologiyalarni joriy etish orqali hosildorlikni oshirish va mahsulot sifatini yaxshilash imkoniyati yaratiladi.

4. Tashkiliy va huquqiy mexanizmlardan samarali foydalaniladi. Bog'dorchilik klasterlarini qo'llab-quvvatlash uchun davlat subsidiyalari va grantlar ajratiladi. Davlat va xususiy sektor hamkorligi orqali moliyaviy yordam va investitsiyalar jalb qilinadi. Bog'dorchilik klasterlarini rivojlantirish uchun qulay huquqiy muhit yaratiladi.

5. Yaratilgan imkoniyatlar va mexanizmlar natijasi iqtisodiyotga ijobiy ta'sirda o'z ifodasini topadi. Bog'dorchilik klasterlari iqtisodiyotga ijobiy ta'sir ko'rsatgani holda, ko'plab ish o'rinlari yaratadi, bu esa mahalliy iqtisodiyotga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Bog'dorchilik klasterlari mamlakat iqtisodiyotiga sezilarli darajada hissa qo'shadi.

6. Bog'dorchilikda klasterlarning rivojlanishi barqaror rivojlanish imkonini beradi. Bunda ekologik barqarorlikni taminlash orqali ekologik toza texnologiyalarni qo'llash orqali tabiatga zarar yetkazmaslik va barqaror rivojlanishni ta'minlash imkonini bersa, hududlarda ijtimoiy barqarorlikni ta'minlab, mahalliy jamoalar bilan hamkorlikda faoliyat yuritish va yangi ish o'rinlari yaratish orqali ijtimoiy barqarorlikni oshirish imkonini beradi.

7. Mamlakatlar bozori va ularning xalqaro eksport yo'nalishlari. Shimoliy Amerika bog'dorchilik klasterlari xalqaro bozorlar uchun mahsulot yetkazib berishda katta tajribaga ega. Mahsulotlarning xalqaro bozorlarda raqobatbardoshligini oshirish uchun kuchli marketing strategiyalari ishlab chiqiladi.

Tadqiqotlarda Yevropa Ittifoqi singari Shimoliy Amerikaning muvaffaqiyatli bog'dorchilik klasterlari, ularning faoliyati va iqtisodiyotga ta'siri tadqiq etildi.

Ushbu mexanizmlarni samarali amalga oshirish orqali bog'dorchilik klasterlari innovatsiyalarni targ'ib qilish, raqobatbardoshlikni oshirish va yangi bozorlar va eksport imkoniyatlarini yaratish imkoniyatlariga ega bo'ladi.

Mamlakatimiz hududini ikkita mintaqaga bo'lgan holda mevalarni joylashtirish o'rinli bo'ladi.

Tekislik hududlari (quyi va o'rta balandlik, sug'orish imkoniyati yaxshi bo'lsa) Eng ko'p mos keladigan mevalar Anor - issiqqa chidamli, ko'pchilik tekisliklarda barqaror. Uzum - klaster uchun juda "daromadli" yo'nalish; tomchilatib sug'orish yaxshi ishlaydi. Anjir - issiq iqlimlarda yaxshi, qisman

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 14 martdagi "Meva-sabzavotchilik sohasida qishloq xo'jaligi kooperatsiyasini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4239-son qarori.

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 23-oktabrdagi "O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligini rivojlantirishning 2020 — 2030-yillarga mo'ljallangan strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5853-son Farmoni.

3. Mirziyoyev Sh.M. Mamlakatni qudratli, millatni buyuk qiladigan kuch bu - ilm-fan, ta'lim va tarbiyadir. 9.12.2023. www.daryo.uz

4. Портер Майкл. Конкуренция: Пер. с англ. / Майкл Портер. - М.: Вильямс, 2003. - 605 с.

5. Хакимов А. Енгил sanoat korxonalarining raqobatbardoshligini marketing strategiyalari asosida oshirish. Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi. - Toshkent, 2018.

6. Ergashov, U. Qishloq xo'jaligini barqaror rivojlantirish Va ekologik toza hududni yo'lga qo'yishning ahamiyati. Green Economy and Development, 3(5), 665501.

sug'orish bilan ham o'sishi mumkin. Olma (navlar tanloviga bog'liq) - tekislikda sovuqqa chidamli navlar bilan. Nok - unumdor tuproq va sug'orishda yaxshi. Shaftoli, o'rik - issiqqa mos, erta pishadigan navlar bilan klaster samarali. Olcha va gilos - sovuq "tushmaydigan" zonalarda, to'g'ri nav tanlansa yaxshi. Olxo'ri - iqlimga mos navlar bilan. Bodom – ayniqsa qurg'oqchilikka chidamli yo'nalish sifatida. Sanoat va qayta ishlashga mos "klaster" turlari

Tog'li hududlar (balandlik, salqinroq iqlim, havo almashinuvi yaxshi) Tog'larga ko'proq mos mevalar Olma - tog'larda juda yaxshi o'sadi (ayniqsa salqinroq zonalarda). Nok - olma bilan birga, balandroq hududlarda mos. Gilos, olcha - salqin iqlimni yoqtiradi (sovuqqa chidamli navlar bilan). Qarag'at (smorodina) – tog'li hududlarda ham, to'g'ri agrotexnika bilan barqaror. Morsh (malina) ismaloq emas, malina - tog'larda uchraydi; lekin qurg'oqchilik bo'lsa sug'orish zarur bo'ladi. Anor va uzum ham tog' etaklarida bo'lishi mumkin, lekin: balandlik oshsa sovuq xavfi kuchayadi, shamol va tuproq-drengaj masalalari muhim bo'ladi, shuning uchun faqat mos ekin zonalari tanlab olib ekisa maqsadga muvofiq bo'lar edi

7. Ergashov, U. Z., & Boboyev, S. X. (2023). ILMIIY TADQIQOTLARDA QISHLOQ XO'JALIGI KLASSTERJIAPINING O'RGANILISHI. Academic research in educational sciences, 4(SamTSAU Conference 1), 820-831.

8. Ergashov, U. Z. (2022). MEVA-SABZAVOTCHILIK VA UZUMCHILIK TARMOG'INI YANADA RIVOJLANTIRISH, SOHADA YARATILAYOTGAN QO 'SHIMCHA CHORA-TADBIRLARNING IQTISODIY AHAMIYATI. Academic research in educational sciences, (Conference), 211-217.

9. Ergashov, U. B. (2021). Integratsiya Jarayonida Bog'dorchilikda Klasterlarni Barpo Qilishning Tashkiliy-iqtisodiy Mexanizmlar Va Tarkibiy O'zgarishlarga Ta'siri. Green Economy and Development, 2(8), 664752.

10. Ergashov, U. Bog'dorchilik Tarmog'ida Klasterlarni Joriy Qilishda Yevropa Tajribasini Qo'llash Imkoniyatlari. Green Economy and Development, 3(5), 665583